Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320845

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

turtki bo'ladi. Bunda mamlakatimiz investorlarga yanaga kuchliroq sharoit yaratib berishi kerak. Xalqaro Buxgalteriyani standartlarini mamlakatimizda rivojlantirish bunga bir misol bo'ladi. Mamlakatimiz qadim ulkan tarixga ega va butun dunyodan yurtimizda qiziqib keluvchi sayyohlar oqimi oshib bormoqda. Kelgan sayyohlarga mamlakatimizning qishloq xo'jaligidagi salohiyatini ko'rsatib berishimiz kerak. Bu o'z navbatida investorlar ko'lamini oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli farmoni

2. 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Respublikasi "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlar

3. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.

4. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2023). Paxta-to 'qimachilik klasterlarida sotish baholarining tahlili.

5. Kazakova, Z. S., & Aslonov, X. (2023). QISHLOQ XO 'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O 'RNI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 391-398.

6. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklasterlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.

7. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. MASTERS, 1(1), 112-118.

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'RNI

Jumayev Shaxzod Tohir o'g'li, Ko`charov Abulqosim Xolmurza o`g`li
Guliston Davlat Universiteti Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti 3-kurs talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'rni yoritilgan. Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, daromadni oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, farovonlik, bandlik, innovatsiyalar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari.

Hozirgi davrda har bir davlatning asosiy maqsadi – xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning asosi, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini yuksaltirishning muhim omillaridan biridir. Shu boisdan mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu maqolada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish masalalari, bu yo'nalishdagi yutuqlar va muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar yoritiladi.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Jumayev Shaxzod Tohir o'g'li, Ko`charov Abulqosim Xolmurza o`g`li (2024). Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'rni. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320845

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatning eng muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, aholi bandligini ta’minlash va daromadlarni oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Jahon tajribasiga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotning 60-70 foizini tashkil etadi va aholi bandligining asosiy qismini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda ham tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ularga soliq imtiyozlari yaratish va huquqiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Shuningdek xalqaro tajribadan ma’lumki, milliy iqtisodiyotdagi barcha iqtisodiy o‘zgarishlarni uning pirovard natijasi aholi farovonligini qay darajada yaxshilanayotganligi hamda kambag‘allar sonini nechog‘li qisqarib borayotganligidan kelib chiqadi. Farovonlik ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchisi, iqtisodiy farovonlik-bu hayotiy ne’matlarning jon boshiga iste’moli bilan, ikkinchisi, ijtimoiy farovonlik bo‘lib, bu hayot kechirishning umumiy shart-sharoiti qandayligi bilan tavsiflanadi. Demak, jamiyat ishlab chiqarganiga qarab iste’mol qiladi, ammo hammasini emas, ma’lum bir qismi jamg‘arilib kelajak xaridlarga yo‘naltiriladi. Ayni vaqtda dunyoda yaratilgan tovar va xizmatlar qiymatining 18 foizi jamg‘arma hosil etib, kelajakni ta’minlaydi[1]. Farovonlik kategoriyasi va uning tarkibi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi.

1-jadval

Tadbirkorlikning aholi farovonligiga ta’siri

Ko‘rsatkichlar	**2019 yil**	**2020 yil**	**2021 yil**	**2022 yil**	**2023 yil**
Kichik biznes ulushi (%)	50	52	54	56	58
Yangi ish o‘rinlari (ming)	120	130	145	160	175
Kredit hajmi (mlrd so‘m)	25,000	28,000	30,000	33,000	36,000

Yuqoridagi jadval kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi va u orqali yaratilgan ish o‘rinlari dinamikasini aks ettiradi. Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, 2019 yildan 2023 yilgacha kichik biznes ulushi va bandlik darajasi muntazam oshgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

1. Yangi ish o‘rinlarini yaratish: Tadbirkorlik faoliyati yangi korxonalar tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish orqali aholi bandligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznes vakillarini qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirish mumkin.

2. Innovatsiyalarni joriy etish: Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligi oshiriladi. Bu esa mahalliy tadbirkorlarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish ulushi (foizda):

- 2020 yil: 15%
- 2021 yil: 18%
- 2022 yil: 22%
- 2023 yil: 25%

Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish ulushi yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qiladi.

3. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash: Tadbirkorlarni moliyaviy jihatdan rag‘batlantirishda imtiyozli kreditlar ajratish va kafolat fondlarini tashkil etish muhim

ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda bir qator ishlar amalga oshirilib, tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashilmoqda.

Soliq tizimini takomillashtirish: Soliq yukini kamaytirish va biznes uchun qulay sharoitlar yaratish tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlari uchun bir qator soliq imtiyozlari joriy etilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish asosan inson kapitalini rivojlantirishda birinchidan, ta’lim tizimi faoliyatidagi mavjud kamchiliklar bartaraf etish orqali uning sifati oshirish; ikkinchidan, sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini va aholi uchun undan foydalanish imkoniyati kengaytirish; uchinchidan, kambag‘allikni o‘lchash tizimini, unga qarshi kurashish tizimini takomillashtirib borish; to‘rtinchidan, aholi zaif qatlamlarining mehnat bozoridagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish; beshinchidan, aholini tabiiy gaz, toza ichimlik suvi ta’minoti va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim o‘rin tutadi. Bu va shunga mos ravishda hududiy va respublika miqyosidagi Dasturlar ijrosi istiqbolda aholi farovonligini yanada ortishiga tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish masalalari umid uyg‘otadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish aholi farovonligini oshirishning eng samarali vositalaridan biridir. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida tadbirkorlik sohasidagi muammolarni bartaraf etish va bu yo‘nalishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali yanada katta natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni, 28.01.2022 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2023 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi. 07.11.2019. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi.
4. Kamoliddinov I. Namangan viloyatida kichik ishlab chiqarish tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari //Общyestvo i innovasii. – 2022.

MILLIY HISOB TIZIMIDA BIOLOGIK AKTIVLARNI HISOBGA OLISH BO‘YICHA TAKLIF VA TAVSIYALAR

Axmadaliyeva Zebo Abduxalimovna
Farg‘ona politexnika instituti mustaqil tadqiqotchi
z.a.axmadaliyeva@ferpi.uz

Annotatsiya: Maqolada biologik aktivlarini hisobga olishning zamonaviy usullarini o‘rganish; hisoblar rejasini takomillashtirish asosida biologik aktivlarni adolatli qiymatda hisobga olish metodologiyasi ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: biologik aktiv, biotransformatsiya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, baholash, adolatli qiymat, 41-"Qishloq xo‘jaligi" buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IAS)

KIRISH

Bizga ma’lumki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning